

**«ASIA ALLIANCE BANK»  
AKSIYADORLIK-TIJORAT BANKI**

---

**2024-yil uchun**

**«ASIA ALLIANCE BANK» AKSIYADORLIK-TIJORAT BANKI  
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA KENGAYTIRISH BO`YICHA  
BIZNES-REJA**



**«ASIA ALLIANCE BANK» ATB KUZATUV KENGASHI QARORI BILAN TASDIQLANGAN  
(2023-yil «05» dekabrda K - 58/1-sonli Bayonnoma)**

---

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>JORIY VAZIYATNI TAHLIL QILISH VA «ASIA ALLIANCE BANK» ATB UCHUN QIYINCHILIKLAR .....</b>	<b>4</b>
Makroiqtisodiy tendentsiyalar .....	4
O'zbekistonning YaIM tarkibi .....	4
O'zbekistonning bank sektori.....	7
Bank uchun asosiy qiyinchiliklar .....	12
Bankning bozor pozitsiyasi .....	15
Raqobat muhitini tahlil qilish .....	16
Bank faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari.....	17
Kredit faoliyati.....	17
Bankning investitsiyaviy va emissiyaviy faoliyati .....	21
Banklararo pul va valyuta bozorlaridagi operatsiyala .....	21
Xalqaro faoliyat.....	23
Chakana biznes.....	25
Korporativ biznes .....	27
Risk-menejment tizimi .....	29
Axborot texnologiyalari.....	30
Bank xodimlari tomonidan boshqarish tizimini takomillashtirish.....	31
<b>MOLIYAVIY REJALASHTIRISH .....</b>	<b>32</b>
<b>ILOVALAR</b>	
2024-yil uchun prognoz balansi	
2024-yil uchun daromadlar va xarajatlar to`g`risida prognoz hisoboti	

## KIRISH

Ushbu B|iznes-reja «ASIA ALLIANCE BANK» ATB tomondan 2024-yilda amalga oshirish rejalashtirilgan tadbirlarni, shuningdek, Bankning 2024-yilgi moliyaviy rejasini o'z ichiga oladi.

«ASIA ALLIANCE BANK» aksiyadorlik-tijorat banki (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) 2009-yil avgust oyida tashkil etilgan. Bankning Bosh ofisi quyidagi manzilda joylashgan:

O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent shahri, Maxtumquli ko'chasi, 2A.

Bank O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi, Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg'armasi, O'zbekiston respublika valyuta birjasining a'zosi va VISA International xalqaro tashkilotining assotsiatsiyalangan a'zosi hisoblanadi.


Moody's Investors Service xalqaro reyting agentligi tomonidan Bankka “Barqaror” prognozi bilan B2 global shkalasi bo'yicha milliy va chet el valyutasidagi depozitlarning uzoq muddatli va qisqa muddatli reytinglari, B1 darajadagi kontragent xavfi (Counterparty Risk Assessment) berildi.

## JORIY VAZIYATNI TAHLIL QILISH VA «ASIA ALLIANCE BANK» ATB UCHUN QIYINCHILIKLAR

### Makroiqtisodiy tendentsiyalar

2023-yilning to'qqiz oyi davomida O'zbekiston iqtisodiyoti 2022-2023-yillarda yuz bergan tashqi vaziyat, shuningdek, barqaror bo'lmagan jahon kon'yunkturasi va geosiyosiy vaziyat ta'ziqlarining saqlanib qolishi ta'siri ostida rivojlandi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YalM) joriy narxlarda 750,9 trln.so'mni (65 mlrd. AQSh dollarini) tashkil etib, 2022-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan uning o'sishi real ko'rinishda 5,8 foizni tashkil etdi. YalMning o'sishiga quyidagi tarmoqlar ijobiy hissa qo'shdilar: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 0,9 f.p.; sanoat - 1,4 f.p.; qurilish - 0,4 f.p.; va xizmat ko'rsatish sohalari – 2,5 f.p. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YalM 0,6 f.p. ga oshdi

### O'zbekistonning YalM tarkibi



*O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida*

2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga YalM joriy narxlarda 20 577,6 ming so'mni (yoki ekvivalentida 1 789,5 AQSh dollarini) tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 3,6 foizga o'sdi.

2023-yil oziq-ovqat va yoqilg'i-energetika tovarlari narxlarining oshishi natijasida global inflyatsiya jarayonlarining tezlashishi, shuningdek, yetakchi markaziy banklarning pul-kredit siyosatining keskinlashishi va muhim ahamiyatga ega stavkalarining oshishi bilan tavsiflanadi.

9 oy ichida O'zbekistonda inflyatsiya 2022-yil sentyabrdagi 12,2 foizga nisbatan 9,2 foizgacha pasaydi. Ko'rib chiqilayotgan davrda oziq-ovqat inflyatsiyasi 5,6 foizgacha pasaydi (2022-yilning 9 oyi uchun – 10 foiz). Nooziq-ovqat tovarlari narxi 4,8 foizga (2022-yilning shu davriga nisbatan 7,9 foiz), xizmatlar narxi 4,7 foizga (4,8 foiz) oshdi.

Inflyatsiya darajasining pasayishi tendentsiyasidan kelib chiqib, shuningdek, qattiq tashqi moliyaviy sharoitlarning ichki iqtisodiy faoliyatga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida 2023-yil mart oyida Markaziy bankning asosiy stavkasi 15 foizdan 14 foizga tushirildi.

2022-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha respublikaning tashqi savdo aylanmasi 44,8 mlrd.AQSh dollarini tashkil etdi va o'tgan yilning analogik davriga nisbatan 8,1 mlrd.AQSh dollariga yoki 22,1 foizga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 17,7 mlrd. AQSh dollarini (23,5 foizga o'sdi), import hajmi - 27,0 mlrd. AQSh dollarini (21,2 foizga o'sdi) tashkil etdi.

### O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdoda eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar


<b>XXR</b>	<b>Россия</b>	<b>Қозоғистон</b>	<b>Туркия</b>	<b>Корея Республикаси</b>
<b>ТСА – 9 454,9</b>	<b>ТСА – 7 034,5</b>	<b>ТСА – 3 229,8</b>	<b>ТСА – 2 350,5</b>	<b>ТСА – 1 699,1</b>
Экспорт: 1 855,5 Импорт: 7 599,5	Экспорт: 2 326,6 Импорт: 4 707,9	Экспорт: 1 067,0 Импорт: 2 162,8	Экспорт: 1 016,4 Импорт: 1 334,1	Экспорт: 32,7 Импорт: 1 666,4
 21,1 %	 15,7 %	 7,2 %	 5,3 %	 3,8 %
<b>Туркменистон</b>	<b>Германия</b>	<b>Қирғиз Республикаси</b>	<b>Франция</b>	<b>Афғонистон</b>
<b>ТСА – 830,3</b>	<b>ТСА – 784,2</b>	<b>ТСА – 753,8</b>	<b>ТСА – 658,8</b>	<b>ТСА – 615,3</b>
Экспорт: 129,4 Импорт: 700,9	Экспорт: 61,0 Импорт: 723,2	Экспорт: 537,4 Импорт: 216,3	Экспорт: 307,6 Импорт: 351,2	Экспорт: 608,7 Импорт: 6,6
 1,9 %	 1,8 %	 1,7 %	 1,5 %	 1,4 %

(2023-yil yanvar-sentyabr oylari uchun, mln.dollar AQSh)

Mamlakat eksport salohiyatini oshirish, eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va eksport mahsulotlari nomenklaturasini kengaytirishga qaratilgan islohotlar natijasida eksport qiluvchilar soni 6 417 nafarga yetdi, tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi esa 12 101,9 mln. AQSh dollarini (nomonetar oltindan tashqari) tashkil etdi va 2022-yilning analogik davriga nisbatan 6,2 foizga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar 78,2 foizni, shundan sanoat tovarlari - 17,3 foizni, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 7,3 foizni, turli tayyor mahsulotlar - 5,2 foizni egallaydi.

Importning 2/3 qismidan ko'prog'i XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya va Turkmaniston kabi yirik hamkor davlatlarga to'g'ri keladi:



Uning tarkibidagi asosiy ulushni mashinalar va transport uskunolari (38,2 foiz), sanoat tovarlari (16,6 foiz), shuningdek kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,3 foiz) egallaydi.



2023-yilning to'qqiz oyida O'zbekistonga pul o'tkazmalari hajmi 8,4 milrd. dollarni tashkil etdi, bu 2022-yilning shu davriga nisbatan 33,7 foizga kamdir. Kelgusi yilgi rubl dinamikasi, mehnat migrantlari oqimi va savdo sheriklaridagi geosiyosiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda 2024-yilda xalqaro pul o'tkazmalari hajmi 2023-yil ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari 2023-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra 31,04 milrd. AQSh dollarni tashkil etdi.

2023-yil oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining veb-saytida nashr qilingan 2024-yil va 2025-2026-yillar davri uchun pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarining dastlabki konseptual loyahasiga muvofiq, pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari pul-kredit siyosatining yaqin yillarda tashqi va ichki sharoitlardagi o'zgarishlarga javob choralarini, operatsion mexanizmining rivojlantirish bo'yicha choralarni, iqtisodiyotdagi o'zaro munosabatlarni tadqiq qilishni qamrab oladi.

Tashqi savdo sheriklaridagi iqtisodiy vaziyatni, xom ashyo va moliya bozorlaridagi yuqori noaniqlikni, shuningdek tarkibiy islohotlarni realizatsiya qilish sur'atlarini hisobga olgan holda, yaqin yillarda tashqi iqtisodiy sharoitlarda joriy vaziyatni sezilarli darajada o'zgartirmagan holda tarkibiy islohotlarning rivojlanishi va faol davom etishi **asosiy senariy** shartlari sifatida belgilandi va **muqobil senariy** shartlari sifatida esa - noaniqlikning yanada oshishi va tashqi sharoitlarda shoklarning paydo bo'lishi belgilandi.

Asosiy stsenariyni realizatsiya qilish energetika, transport, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligidagi tarkibiy islohotlarni mantiqiy yakunlashni, byudjetni konsolidatsiya qilishni va 2023-yil ko'rsatkichlariga nisbatan umumiy fiskal defitsitni qisqartirishni (2023-yildagi YalMning 5,5 foizidan 2024-yilda 4 foizgacha va 2025-2026-yillarda 3 foizgacha), davlatning iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirishni, xususiy investitsiyalar va tovarlar eksportining o'sishini nazarda tutadi.

Ushbu stsenariy bo'yicha yangilangan prognozlarga ko'ra, 2022-2023-yillarda sodir bo'lgan tashqi vaziyat o'zgarishlarining taklif omillariga bosimini uzoqroq vaqt davomida saqlanib turishi, shuningdek, tartibga solinadigan narxlarning ba'zi tuzatishlarining umumiy inflyatsiyaga ta'siri, 2025-yilning ikkinchi yarmida inflyatsiyaning 5 foizi doimiy targetiga erishishni kutish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy stsenariysi doirasida 2024-yilda prognoz qilinayotgan inflyatsiya darajasi 8-9 foizni tashkil qiladi. Inflyatsiyaning prognoz ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash uchun 2024-yilda pul-kredit shartlari nisbatan qattiq bosqichda qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining prognoz hisob-kitoblariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot hajmi 2024-yilda 5,0-5,7 foiz, 2025-yilda 5-6 foiz va 2026-yilda 5,5-6,5 foiz darajasida prognoz qilinmoqda.

**Muqobil senariy** sharoitida, asosiy stsenariydan farqli o'laroq, 2024-yilda inflyatsiyaning darajasi 9-10 foiz prognoz qilinayotganini hisobga olgan holda tashqi sharoitlarning nisbatan noqulay shakllanishi tufayli ichki narxlarga qo'shimcha bosim mavjud deb taxmin qilinadi. Bunday holda, doimiy targetga erishish ancha keyingi davrga suriladi. 2025-yilda inflyatsiya taxminan 7-8 foizni tashkil qiladi va uning 5 foizgacha pasayishi 2026-yilning oxiriga prognoz qilinmoqda.

## O'zbekistonning bank sektori

### O'zbekiston bank sektorining asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. so'm

Ko'rsatkichlarning nomi	01.10.2022 y.	01.10.2023y.	O'sish, foizda
<b>YalM*</b>	<b>638 338</b>	<b>750 926</b>	<b>-</b>
<b>Banklarning aktivlari</b>	<b>539 990</b>	<b>615 802</b>	<b>14%</b>
Aktivlarning YalMga nisbati, foizda	85%	82%	
<b>Kredit qo'yilmalari</b>	<b>362 933</b>	<b>451 610</b>	<b>24%</b>
Kredit qo'yilmalarining YalMga nisbati, foizda	57%	60%	
<b>Depozitlar</b>	<b>206 759</b>	<b>221 335</b>	<b>7%</b>
Depozitlarning YalMga nisbati, foizda	32%	29%	
<b>Kapital</b>	<b>76 854</b>	<b>89 030</b>	<b>16%</b>
Kapitalning YalMga nisbati, foizda	12%	12%	
<b>Sof foyda</b>	<b>7 123</b>	<b>8 023</b>	<b>13%</b>
ROA	2,6%	2,4%	-0,2f.p.
ROE	12,9%	12,7%	-0,2f.p.
<b>Banklarning kreditlari va depozitlari bo'yicha stavkalar</b>			
Milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavkalari	22,3%	23,0%	-0,7f.p.
Chet el valyutasidagi kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavkalari	7,3%	9,1%	0,8f.p.
Aholining milliy valyutadagi depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan stavkalari	20,6%	21,1%	0,5f.p.
Aholining chet el valyutasidagi depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan stavkalari e	4,0%	4,9%	0,9f.p.
Yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan stavkalari.	16,3%	16,8%	0,5f.p.
Yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan stavkalari.	3,0%	4,2%	1,2f.p.

*O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari va O'zRMBning statistika axborotnomasi asosida*

2023-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha bank sektorining asosiy ko'rsatkichlari barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatdi. O'zbekiston banklarining o'tgan yilning shu davridagi jami aktivlari 14 foizga o'sib, 2023-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha qariyb 751 trln. so'mga yetdi.

2023-yilning 9 oyi davomida tijorat banklari tomonidan umumiy qiymati 183,9 trln. so'm bo'lgan kreditlar ajratildi, o'tgan yilning analogik davriga nisbatan o'sish 30 foizni tashkil etdi. Taqqoslangan davrda banklarning umumiy kredit portfeli 24 foizga o'sdi va 2023-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra 452 trln. so'mga yetdi. 2023-yilning 9 oyi yakunlariga ko'ra, banklarning milliy valyutadagi kreditlari portfelinin o'rtacha tortilgan daromadliligi 23 foizni (2022-yilning 9 oy ichida -22,3 foiz), chet el valyutasida -9,1 foizni (7,3 foiz) tashkil etdi.

Banklarning depozit bazasi sezilarli darajada kengaydi, bu o'tgan yilning shu davri natijalariga nisbatan 7 foizga oshdi va 2023-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra 221 trln. so'mni tashkil qildi. Aholining omonatlari hajmi 39 foizga o'sib, 83,6 trln. so'mga yetdi. Iqtisodiyotni dedollarlashtirish siyosati sharoitida milliy valyutadagi depozitlarni jalb qilish stavkasining o'sishi kuzatilmogda.

Banklarning umumiy kapitali 16 foizga o'sib, 89 trln. so'mga yetdi. 2023-yilning 9 oyi davomida banklarning sof daromadi analogik davr ko'rsatkichiga nisbatan 13 foizga oshib, 8 trln so'mdan oshdi. Shu bilan birga, banklar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarida ba'zi

yomonlashishi kuzatilmoqda, shu jumladan ROA ko'rsatkichi 2,6 foizdan 2,4 foizgacha, ROE ko'rsatkichi 12,9 foizdan 12,7 foizgacha yetdi.

### Bank sektorining institutsional xususiyatlari

2023-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro'yxatdan o'tgan amaldagi tijorat banklarining umumiy soni 35 tani tashkil etdi, shu jumladan davlat ulushi ishtirokidagi 10 ta bank, 25 ta xususiy bank va boshqa banklar.

#### Kredit tashkilotlari va ularning tarkibiy bo'linmalari soni, birl.

Ko'rsatkichlarning nomi	01.10.2022y.	01.10.2023y.
<b>Kredit tashkilotlari, jami *</b>	<b>190</b>	<b>204</b>
<i>shu jumladan:</i>		
<b>tijorat banklari, ulardan:</b>	<b>33</b>	<b>35</b>
Davlat ulushi ishtirokidagi banklar	12	10
Boshqa banklar	21	25
<b>nobank kredit tashkilotlari, ulardan:</b>	<b>157</b>	<b>169</b>
Mikromoliya tashkilotlari	77	84
Lombardlar	79	84
Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari	1	1
<b>Tijorat banklarining filiallari, jami</b>	<b>849</b>	<b>697</b>
<b>Bank xizmatlari markazlari (mini-banklar)</b>	<b>1 339</b>	<b>1 784</b>
<b>24 soatlik o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish punktlari (24/7)</b>	<b>2 790</b>	<b>3 484</b>

Markaziy bank statistika axborotnomasi ma'lumotlari asosida

O'zbekiston bank sektorida yuqori konsentratsiya saqlanib qolmoqda, xususan, barcha bank aktivlarining 69 foizi hamon davlat ulushi bo'lgan banklarga, 56 foizi esa 5 ta davlat banklariga (Milliy bank, O'zsanoatqurilishbank, Agrobank, Asakabank va Xalq banki) tegishli. Davlat banklarining depozit bazasi ularning kreditlariga nisbatan 35 foizni tashkil qiladi. Taqqoslash uchun, xususiy banklarda bu ko'rsatkich 83 foizdan oshadi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarning depozitlari bank tizimidagi jami depozitlar hajmining atigi 38 foizini tashkil etadi, bu YalMning taxminan 11 foizini tashkil etadi.

mlrd. sum	Aktivlar		Kreditlar		Kapital		Depozitlar	
	Miqdori	Ulushi,%	Miqdori	Ulushi,%	Miqdori	Ulushi,%	Miqdori	Ulushi,%
<b>Jami</b>	<b>615 802</b>	<b>100%</b>	<b>451 610</b>	<b>100%</b>	<b>89 030</b>	<b>100%</b>	<b>221 335</b>	<b>100%</b>
Davlat banklari	422 152	69%	324 035	72%	58 806	66%	114 881	52%
Boshqa banklar	193 650	31%	127 576	28%	30 224	34%	106 454	48%

Markaziy bank statistika axborotnomasi ma'lumotlari asosida

Mamlakatda banklarning davlat aksiyalari paketini tegishli tajriba va malakaga ega bo'lgan strategik investorlarga sotish orqali bank sektoridagi davlat ulushini kamaytirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida 2025-yilda bank sektoridagi davlat ulushini 40 foizga kamaytirish, bank tizimidagi xususiy sektor ulushini 18 foizdan 60 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.



2022-yil dekabr oyida "Ipoteka-bank"ni xususiylashtirish to'g'risidagi shartnoma imzolangan bo'lib, unga ko'ra Vengriya OTP banki O'zbekiston moliya vazirligiga tegishli bo'lgan "Ipoteka-bank" aksiyalarining 100 foizini (umumiy Aksiyalar paketining deyarli 97 foizini) ikki bosqichda sotib oladi. "Ipoteka-bank"dagi davlat ulushi 324 mln. dollarga sotildi. Sotib olish natijasida OTP guruhi Markaziy Osiyo mintaqasiga kirdi va O'zbekiston bank sektorini xususiylashtirishda ishtirok etgan birinchi xorijiy bank bo'ldi.

2023-yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan bir nechta davlat banklarini xususiylashtirish jarayoniga tuzatishlar kiritildi. Hukumatning yaqin kelajakda asosiy e'tibori "O'zsanoatqurilishbank"ni sotishga yo'naltiriladi va 2024-yil oxiriga kelib O'zPSBda davlat ulushini 50 foizdan kam darajaga tushirish rejalashtirilgan. Xorijiy investorlarning geosiyosiy inqiroz tufayli postsovet mamlakatlari bozorlariga chiqishi murakkablashgani, shuningdek, xorijiy investorlarning, xususan, xorijiy investorlarning ishonchi pastligi sababli xususiylashtirish va boshqa bir qancha banklarning aksiyalarini ommaviy taklif qilish muddatlari uzaytirildi:

- "Qishloq qurilish bank" IPOni 2024-yil martigacha o'tkazish topshirildi;
- "Agrobank", "Aloqabank", "Mikrokreditbank", Xalq banki, O'zMB IPOni 2025-yil 1-yanvargacha o'tkazish talab etiladi;
- "Asakabank"ni xususiylashtirish muddati 2025-yil oxiriga ko'chirildi.

Sanab o'tilgan banklarda paketlarning bir qismini sotishning oldingi muddatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil martdagi qarori bilan belgilangan bo'lib, unda quyidagilar nazarda tutilgan:

- 2022-yil 1-oktyabrga qadar - "Qishloq qurilish banki" ATBning aksiyalarini ommaviy joylashtirish (IPO);
- 2022-yil oxirigacha – Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot bankini jalb qilgan holda "O'zsanoatqurilishbank" ATB va "Asakabank" ATBning davlat ulushlarini kim oshdi savdosiga qo'yish;
- 2023-yil 1-iyulga qadar - AT "Xalk bank", "Mikrokreditbank" ATB, "Alokabank" AT, "Agrobank" ATB, "O'zmillibank" AJlarning aksiyalarini fond birjasi orqali ommaviy joylashtirish (IPO) ishlarini tashkillashtirish.

Prezident tomonidan 2020-yil 12-mayda imzolangan «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi»da zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlarini turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilangan edi. Bugungi kunda O'zbekistonda 27 milliondan ortiq kishi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanmoqda, raqamli moliyaviy xizmatlar taqdim etishga ixtisoslashgan 28 ta to'lov tashkiloti ro'yxatdan o'tgan, mamlakatda onlayn-to'lovlarning ulushi tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

### Bank plastik kartalari, terminallar, bankomatlar, infokiosklar va mijozlar haqida axborot

Ko'rsatkichlarning nomi	01.10.2022y.	01.10.2023y.	O'sish,%
Bank plastik kartalari soni	31 820 600	41 359 507	30%
To'lov terminallari soni	432 269	429 182	-1%
Bankomatlar va infokiosklar soni	19 318	24 036	24%
To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi, mlrd. so'm	122 195	181 545	49%

Masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni, shu jumladan.	18 709 533	27 608 781	48%
<i>Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni</i>	27 608 781	39 335 648	42%
<i>Jismoniy shaxslar soni</i>	1 128 684	1 311 418	16%

Markaziy bank statistika axborotnomasi ma'lumotlari asosida

Zamonaviy sharoitda bank sektorining raqamli transformatsiyasi raqamli iqtisodiyotni barpo etish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish, xususan, aholining keng qatlamlari masofaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash va ularning sifatini yaxshilash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rildi. Hozirgi vaqtda mamlakatda 5 ta raqamli bank (TBC Bank, Anor Bank, Uzum Bank, Smar Bank, Hayot Bank).

### Pul va valyuta bozorlarining asosiy indikatorlari

Ko'rsatkichlarning nomi	01.10.2022y.	01.10.2023y.
Asosiy stavka	15%	14%
UZONIA stavkasi	14%	14%
O'zRMB tomonidan muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar hajmi (mlrd. so'm)	69 248	20 841
<i>O'rtacha tortilgan stavkasi</i>	17%	16,5%
MB depozit auksionlarida banklar tomonidan mablag' taklif qilish hajmi (mlrd. so'm)	81 565	79 135
Jalb qilingan mablag'lar hajmi (mlrd. so'm)	73 931	79 135
<i>O'rtacha tortilgan foiz stavkasi</i>	15%	14%
Tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda joylashtirilgan overnayt depozitlar (mlrd. so'm)	15 154	11 226
<i>O'rtacha tortilgan foiz stavkasi</i>	13%	12%
Milliy valyutadagi banklararo depozitlar (jalb qilish)	99 774	258 313
<i>O'rtacha tortilgan foiz stavkasi</i>	16%	14%
O'zRVBda chet el valyutalari savdosi hajmi, mln. AQSh dollari	14 218	18 284
<i>Xarid qilish</i>	9585	14010
<i>Sotish</i>	4632	4274
O'rtacha tortilgan ayirboshlash kursi, AQSh dollari/miqdori	11003	11561
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan sotib olingan chet el valyutasining hajmi, mln AQSh dollari	8 969	6 476
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga sotilgan chet el valyutasi hajmi	8 932	6 826
AQSh dollarining sumga nisbatan rasmiy ayirboshlash kursi	11014	12156
9 oy ichida o'zgarish, sum		1142
9 oy ichida o'zgarish., %		10,37%

Markaziy bank statistika axborotnomasi ma'lumotlari asosida

2023-yilda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi qattiq global moliyaviy sharoitlar, jahon inflyatsiyasining sekinlashuvi va aksariyat iqtisodiyotlarda faollikning pasayishi ta'siri ostida shakllandi. Iqtisodiy konyunkturada, shuningdek, sezilarli fiskal rag'batlar, investitsiya faolligining oshishi, kreditlashning tezlashishi va o'tgan yilga nisbatan pul o'tkazmalari hajmining sezilarli darajada pasayishi aks etdi.

Talab va taklifni keyingi choraklarga muvozanatlash uchun 2023-yil boshida nisbatan qattiq pul-kredit shartlari saqlanib qoldi. Bu, o'z navbatida, pul bozorida va bank tizimida real foiz stavkalarining ijobiy darajasini shakllantirishga yordam berdi.

Fevral oyidan boshlab inflyatsiya kutilmalarining pasayishi kuzatildi va mart oyida aholi va tadbirkorlarning kutilmalari taxminan 14-14,5 foizni tashkil etdi. Bu, o'z navbatida, nisbatan qattiq pul-kredit sharoitlarini saqlab qolgan holda, joriy yilning mart oyida asosiy stavkani 1 f.p.ga kamaytirishga imkon berdi.

Pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha rejali ishlar davom ettiriladi, xususan, bank tizimini dollarlashtirish darajasini pasaytirish, imtiyozli kreditlash operatsiyalarini bosqichma-bosqich qisqartirish, bozor foiz stavkalariga o'tish bo'yicha muhim choralar ko'riladi.

2023-yil boshidan buyon ichki valyutada talab hajmining oldingi yillarga nisbatan yuqori dinamikasining shakllanishi kuzatildi, bu salbiy tashqi savdo balansining kengayishi, shuningdek tashqi moliyaviy sharoitlarning kuchayishi tufayli qarzga xizmat ko'rsatish narxining oshishi bilan bog'liq edi.

Milliy valyuta kursining dinamikasi barqaror saqlanib qoldi, ammo iyul-avgust oylarida asosiy savdo sheriklarining milliy valyutalari devalvatsiyasining kuchayishi va boshqa ichki omillar hisobiga nisbatan yuqori devalvatsiya (4,2 foiz) kuzatildi. Ushbu jarayonni so'm kursining tashqi o'zgarishlarga moslashishi sifatida baholash mumkin. Umuman olganda, yanvar-sentyabr oylarida milliy valyuta kursining devalvatsiyasi 8,3 foizni tashkil etdi va yillik inflyatsiya indeksidan past darajada shakllandi.

## Bank uchun asosiy qiyinchiliklar

Iqtisodiy va operatsion muhitdagi so'nggi tendentsiyalarni o'rganish va bank faoliyatini rivojlantirishning miqdoriy va sifat parametrlarini tahlil qilish bankning barqaror rivojlanishini ta'minlash va uning bozordagi raqobatdosh ustunliklarini oshirish yo'lidagi quyidagi muammolarni aniqlashga imkon beradi

**Tashqi omillarning ta'siri va dunyodagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi.** Global bozorlardagi keskin o'zgarishlarga va oziq-ovqat va yoqilg'i bozorlaridagi savdo aloqalari va narx shoklarining sezilarli darajada buzilishi tufayli jahon iqtisodiyotining zaiflashishi yuqori darajadagi noaniqlikni keltirib chiqarmoqda va O'zbekistonning rivojlanish istiqbollari, xususan, tadbirkorlikka bo'lgan ishonchning pasayishiga va investorlar uchun noaniqlikning oshishiga, aholi daromadlari va pul o'tkazmalari darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu tendentsiyalar va O'zbekiston Markaziy bankining pul-kredit siyosatining kuchayishi fonida biznes yuritish shartlari murakkablashib bormoqda, savdo aloqalarining buzilishi bank mijozlarining tashqi savdo kontraktlari bo'yicha pul oqimlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa bankning daromadlilik darajasiga ta'sir qilishi mumkin.

**O'zbekistonning kuchli tashqi va fiskal zaxiralari, o'rtacha davlat qarzi va nisbatan yuqori o'sish sur'atlari** salbiy makroiqtisodiy oqibatlariga qarshi turishga yordam beradi. Operatsion muhitning yaxshilanishi biznesni tashkil etish va yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib, iqtisodiyot tarmoqlari va bank bozorining ijobiy o'sish sur'atlarini ta'minlaydi, pul oqimlari va mijozlar operatsiyalari hajmini oshiradi, turli kurs va narx shoklarining oldini oladi.

**Yashash sharoitlarining sifat xususiyatlari parametrlarida aholining davomiyligi va o'lim darajasi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi kuzatilmoqda.** Ushbu omillar aholining uzoq muddatli kredit mahsulotlaridan (avto va ipoteka kreditlari) foydalanish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish, energiya tejevchi texnologiyalarni yetkazib berishni moliyalashtirishni kengaytirish va ushbu sohada yangi kredit mahsulotlarini joriy etish, tibbiy sug'urta sohasida sug'urtalovchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali chakana bozorning tegishli segmentlarini qamrab olish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida **xususiy va xorijiy oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada oshib bormoqda, bu esa aholining o'rta va oliy ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi.** Ushbu omillar ta'lim kreditlarini rivojlantirish, oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilari o'rtasida karta mahsulotlarini kengaytirish, mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash sohasida oliy o'quv yurtlari bilan rekruting va hamkorlik faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish sohasida turli xil dasturlarni amalga oshirish orqali brend xabardorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

**Moliya sektorida davlat banklarining ustunligi** bankning nisbatan arzon kreditlar berish orqali mijozlarni jalb qilish va bozorning keng segmentini qamrab olish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, bank mijozlarga operativ va sifatli xizmat ko'rsatish orqali mijozlarni jalb qilish imkoniyatiga ega

**Bozorda raqobat kuchayayotgan bir sharoitida xalqaro moliya institutlarining** davlat banklarini transformatsiya qilish dasturida **faol ishtirok etishi** va ularning mahalliy banklarning ustav kapitalidagi ishtirokini kengaytirish, bozorda Tenge bank (Qozog'iston), TBC (Gruziya), OTP Bank (Vengriya) kabi xorijiy o'yinchilarning paydo bo'lishi biznes yuritishda yangi texnologiyalar va yangi yondashuvlarni rivojlantirish va joriy etishni rag'batlantiradi, shuningdek, bankdan moliyaviy barqarorlikni oshirish, bank kapitaliga mablag' kiritish, shuningdek bankning samarali biznes-modelini yaratish chora-tadbirlarini ko'rishni talab qiladi. 2024-yil bank sektori ishtirokchilarining yanada faolligi bilan ajralib turishi kutilmoqda. Ko'plab

banklarning bizneslarini raqamlashtirishni hisobga olgan holda raqobat yanada kuchliroq bo'ladi. Bozorda tobora ko'proq fintech kompaniyalari, shuningdek, bank bozorida raqobatni yanada kuchaytiradigan yangi mikromoliya tashkilotlari paydo bo'ladi.

Bank xizmatlari bozorini liberallashtirish, texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida, shuningdek, pandemiya ta'siri ostida odamlarning turmush tarzi va **aholining moliyaviy savodxonligi darajasi tez o'zgarib bormoqda**. Binobarin, onlayn bank xizmatlari va elektron to'lovlar hajmi, muqobil investitsiya vositalari va aholini jamg'armalari tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Ushbu omillar bank biznesini rivojlantirish, masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish punktlarini kengaytirish hisobiga operatsion samaradorlikni oshirish, kapital bozori va elektron pullarning turli vositalarini joriy etish orqali bank mahsulotlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda.

**Diniy erkinlik sohasidagi qonunchilikning takomillashtirishi natijasida aholi orasida dindorlarning o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda**, bu ularning imtiyozli sohadagi xatti-harakatlariga, shu jumladan moliyaviy xizmatlardan foydalanishda, shuningdek, Islom banking mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojida namoyon bo'lmoqda. Ushbu omillar Islom bankingi mahsulotlari va "Islom darchasi" tarmoqlarini joriy etish orqali bankning Islomiy moliyalashtirish sohasidagi biznesini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda.

**Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) global kun tartibining uzoq muddatli moliyalashtirish va barqaror rivojlanishni jalb qilishning asosiy vositasi sifatida jadal rivojlanishi.**

2023-yil 26-iyun kuni barqaror rivojlanish sohasidagi Hisobotning standartlari bo'yicha xalqaro kengashi (ISSB) S1 MHXS standartlarining birinchi to'plami "Barqaror rivojlanishga taalluqli bo'lgan moliyaviy axborotlarni oshkor qilishning umumiy talablari" va S2 MHXSning birinchi tematik standarti "Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq oshkor qilish"ni chiqardi, ular 2024-yil 1-yanvardan amalga kiritilib, 2025-yilda e'lon qilingan hisobotlarga nisbatan qo'llaniladi.

Markaziy Osiyo va O'zbekistondagi aksariyat kompaniyalar iqlim tavakkalchiliklarini o'z bizneslarining moliyaviy salomatligi va rivojlanish strategiyasining barqarorligiga ta'sirini aniqlash va baholashni hali boshlamaganlar. Shu bilan birga, jahon investorlar uchun ushbu tavakkalchiliklarning foydaga ta'siri to'g'risidagi axborotlar moliyalashtirish uchun loyihalarni tanlashda "istalgan" toifadan "zarur" toifasiga o'tadi.

S1/S2 MHXSning yangi standartlari moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlar sohasidagi eng yaxshi jahon tajribalarini yagona standartlar tizimiga birlashtiradi va shu bilan barqaror rivojlanish, xususan iqlim va moliyaviy farovonlik o'rtasidagi bog'liqlikni namoyish etadi.



## 2023-yil uchun Bank faoliyatidagi asosiy voqealar xronikasi

2023-yil Yanvar-Mart	«ASIA ALLIANCE BANK» ATB xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi (XSRIK) bilan mavjud moliyalashtirish liniyasi doirasida muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bitim uchun Islamic Finance News (IFN) jurnalining mukofotiga sazovor bo'ldi. 16 mart kuni BAA Dubayda tantanali marosim bo'lib o'tdi, unda «ASIA ALLIANCE BANK» ATB "Yil bitimi" mukofoti bilan taqdirlandi.
2023-yil May	«ASIA ALLIANCE BANK» ATB va Gruziyaning yetakchi bank guruhi Bank of Georgia o'rtasida rejalashtirilgan hamkorlik bo'yicha niyatlar to'g'risida Kelishuv imzolandi. Xorijiy investorlarga davlat institutlari va xususiy kompaniyalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bozoriga kirish imkonini beruvchi vakillik hisobvarag'ini yuritish bo'yicha kelishuv imzolandi.
2023-yil May	Yevropa Ittifoqining yetakchi eksport kredit agentliklari (EKA) ko'magida Frantsuz-nemis "ODDO BHF" moliyaviy guruhi bilan 25 mln. Yevro miqdoridagi uzoq muddatli moliyalashtirish bo'yicha Bazaviy Kredit Kelishuvi imzolandi.
2023-yil Sentyabr	Moody's Investors Service Xalqaro reyting agentligi «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning uzoq muddatli kredit reytingini B2 darajasida "barqaror" prognoz bilan tasdiqladi.
2023-yil Oktyabr	InterContinental Tashkent otelida bo'lib o'tgan UZCARD FORUM 2023 forumida «ASIA ALLIANCE BANK» "Eng texnologik va agile bank" nominatsiyasida mukofotga sazovor bo'ldi.
2023-yil Noyabr	«ASIA ALLIANCE BANK» xalqaro nufuzli Global Finance moliyaviy jurnali versiyasiga ko'ra "O'zbekistondagi kichik va o'rta biznes uchun eng yaxshi bank 2024" (The Best SME Bank in Uzbekistan 2024) deb tan olingan

## Bankning bozor pozitsiyasi


Bank tomonidan 2023-yilda bank faoliyati ko'lamini yanada kengaytirish va bank biznesini kompleks rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ishlari davom ettirildi.

2023-yilning 9 oyi davomida Bank asosiy ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasini ta'minladi. Xususan, Bank aktivlari 18 foizga oshdi va 2023-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra 7,2 trillion so'mdan oshdi. Bankning kredit portfeli 45 foizga oshib, 3,2 trln. so'mni tashkil qildi. Bankning umumiy kapitali 25 foizga oshdi yoki mlrd. so'mni, sof foyda miqdori 143,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.

### «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning bozor pozitsiyasi

Ko'rsatkichlar	01.01.23. holatiga ko'ra.		01.10.23y. holatiga ko'ra.	
	mlrd. so'm	bankning pozitsiyasi	mlrd. so'm	bankning pozitsiyasi
Jami aktivlar	6 112	18	7 206	18
Kredit portfeli (brutto))	2 174	19	3 161	19
Mijozlar depozitlari	4 956	17	5 570	17
Aksiyadorlik kapitali	571	21	714	21
Sof foyda	202	14	143,5	15

### Bankning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2012-2023-yillar), mlrd. so'm



## Raqobat muhitini tahlil qilish

Herfindal-Xirshman indeksi (HHI) asosida hisoblangan konsentratsiya ko'rsatkichi orqali Makroiqtisodiyot va mintaqaviy tadqiqotlar instituti ekspertlari tomonidan 2023-yil may oyida O'zbekiston Respublikasi bank sektoridagi raqobat darajasini baholashga ko'ra, bozorda konsentratsiya darajasi pasaymoqda va bank bozorida raqobat kuchaymoqda. So'nggi yillarda yangi o'yinchilar (OTP, TBC, Uzum, Anorbank, Hayot Bank, Smart Bank) kelishi bilan xususiy banklar o'rtasida chakana savdo va KO`B segmentlarida raqobat keskin oshdi. Keyinchalik xususiylashtirish dasturi doirasida bank bozoriga yangi o'yinchilarning kirishi kutilmoqda.

Davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy sektor va xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar raqobat sharoitlarini yaxshilashga va mamlakat bank sektorini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Xususan, Prezidentning "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o`rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori nobank kredit tashkilotlari uchun keng imkoniyatlar ochmoqda.

### Samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish (2023-yil 1 oktyabr).

Banklar	Aktivlar	Kapital	Kreditlar	Qimmatli qog'ozlar portfeli	Sof foyda	ROA	ROE
ASIA ALLIANCE BANK	7 206 (5)	714 (6)	3 161 (6)	740 (3)	143,5 (6)	2,9%	29,8%
<b>RAQOBAT BANKLAR</b>							
IPAK YO`LI BANKI	15 328	2 598	10 630	936	587	5,5%	33,7%
ORIENT FINANS BANK	11 191	2 095	7 547	0	452	5,4%	31,8%
INFINBANK	8 936	1 113	6 197	0	183	3,0%	24,0%
TRASTBANK	8 741	2155	4 837	1023	595	9,4%	42,0%
DAVR-BANK	5 645	939	4 474	545	303	8,5%	51,4%
<b>Hammasi bo'lib o'rtacha bank</b>	9 508	1602	6 141	541	377	5,8%	35,5%

*"Ahbor-Reyting" reyting agentligi ma'lumotlariga asosan*

Faol operatsiyalarning tez o'sishi fonida, kapitalga tashqi kiritishlarning yo'qligi sababli, Bank kapitalning yetarliligi ko'rsatkichlariga katta bosimni boshdan kechirdi va, aksariyat raqobatchi-banklarda, ularning kapitaliga mablag'larning tashqi kiritilishi hisobiga yuqori o'sish sur'atlari ta'minlangan bir paytda, ishlab topilgan daromad imkoniyatlari doirasida faoliyat ko'rsatkichlarining o'sishini qo'llab-quvvatlashga majbur bo'ldi. Binobarin, bank menejmenti tomonidan barqaror faoliyat va yuqori sifatli xizmat ko'rsatish, sifatli mijozlar bazasini va bankning mahalliy va xorijiy bozorlardagi obro'sini saqlab qolish bo'yicha barcha oqilona choralar ko'rildi.

Kelgusi yilda bozorda raqobat shubhasiz kuchayadi va Bank raqobatdosh ustunliklarni saqlab qolish uchun choralar ko'rishi kerak va zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishga, masofaviy xizmat ko'rsatish kanallarini rivojlantirishga va biznes-jarayonlarini optimallashtirishga katta e'tibor berib, mijozlar bilan munosabatlarni sifat jihatidan yangi darajada qurishga intilishi kerak.

## Bank faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari

2024-yilda Bank faoliyati Bank oldiga qo'yilgan quyidagi ustuvor vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi:

– bank bozorining asosiy segmentlarida raqobatbardosh pozitsiyalarni mustahkamlash (depozitlarni jalb qilish va yuridik shaxslarni kreditlash, mablag'larni jalb qilish va aholini kreditlash) va faoliyatning barcha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi xususiy banklar qatoridan joy olish;

– bank faoliyatini transformatsiya qilish, biznes jarayonlarini optimallashtirish va jarayonlarni maksimal avtomatlashtirilgan holda amalga oshirishni ta'minlash, mijozlar bazasini segmentatsiyalash, tavakkalchiliklarni boshqarish va komplayens tizimini takomillashtirish sohasidagi ishlarni davom ettirish;

– ABT va Internet-bankingning zamonaviy tizimini joriy etish orqali texnologik takomillashtirish, istiqbolli innovatsion texnologiyalarni keying rivojlantirish va joriy etish, bank infratuzilmasini takomillashtirish, elektron savdo kanallarini rivojlantirish;

– Bank aktivlari sifatini oshirish, tavakkalchiliklarni boshqarishning ilg'or usullarini joriy etish, shuningdek Bankning bozor pozitsiyalarini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga Bankning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;

– kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini kreditlash dasturini ishlab chiqish;

– avtokreditlar, mikroqarzlar, iste'mol kreditlari, ipoteka kreditlari, kredit kartalari va overdraftlar kabi chakana kredit mahsulotlarini ommaviy oldinga surish orqali chakana kredit portfelini kengaytirish;

– bankning mahsulot qatoriga nisbatan siyosati bank xizmatlari kompleksini yaratishga, shuningdek bozorning maqsadli segmentlarini faol o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, bu brend xabardorligini oshirishga va mahsulot liniyasining rentabelligini ta'minlashga imkon beradi;

– bank xizmatlari va savdo kanallarini kengaytirish, bank mahsulotlarini standartlashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, biznes-jarayonlar sifati ko'rsatkichlari tizimlarini joriy etish.

– davlat qimmatli qog'ozlarini oldi-sotdi sohasidagi bankning vositachilik faoliyatini kengaytirish, ikkilamchi bozorni saqlash bo'yicha market-meyker faoliyatini rivojlantirish, shuningdek daromad manbalarini kengaytirish;

– xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklar bilan hamkorlikni rivojlantirish. Savdoni moliyalashtirish, kichik biznes sub'ektlarini kreditlash, yangi moliyaviy vositalarni, shu jumladan bozor va boshqa tavakkalchiliklarni samarali boshqarish imkonini beruvchi derivativlarni joriy etish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish bankning ushbu yo'nalishdagi asosiy vazifalari bo'lib qoladi;

– Bank xodimlarining bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, xodimlarning ish samaradorligi ko'rsatkichlari asosida mehnat unumdorligini oshirish va mehnatni rag'batlantirish.

### Kredit faoliyati

2023-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, kredit zaxiralari (brutto) chegirib tashlangunga qadar Bankning kredit portfeli hajmi 3 trln. 161 mlrd.so'mni, shu jumladan chet el valyutasidagi kreditlar 1 trln. 147 mlrd. so'mni (36%) tashkil qildi.

2023-yilning 9 oyi davomida ajratilgan kreditlarning umumiy hajmi 2 380 mlrd. so'mni tashkil etdi, shu jumladan mijozlar turlari bo'yicha quyidagicha:

- yuridik shaxslarga – 1 676 mlrd. so'm;
- jismoniy shaxslarga – 704 mlrd. so'm.

2024-yilda real iqtisodiyot va aholini kreditlash loyihalarini moliyalashtirish orqali bankning kredit portfeli hajmini oshirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi. Kapitalning yetariligi ko'rsatkichlari prognozini hisobga olgan holda, 2024-yilda kreditlarning prognoz hajmi 4 trln so'mdan oshishi rejalashtirilgan. 2024-yil yakuni bo'yicha kredit portfelinin prognoz qoldig'i (sof) **5.063 mlrd. so'mni** tashkil etadi. Kredit portfelinin (netto) jami aktivlarga nisbati 46 foiz darajasida shakllantiriladi (2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra). Kreditlar va lizinglar bo'yicha zaxiralari qoldig'i 126,6 mlrd so'm yoki kredit portfelinin umumiy hajminin 2,5 foizi miqdorida rejalashtirilmogda.

#### Bank kredit faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. so'm

Asosiy ko'rsatkichlar	01.10.2023 (fakt)	01.01.2024 (kutilgan)	01.01.2025 uchun prognoz	O'zg., (kutil.)%
Kredit portfelinin qoldig'i	3 161	3 553	5 063	12%
Yuridik shaxslar kredit portfelinin qoldig'i	2 176	2 446	3 268	12%
Jismoniy shaxslar kredit portfelinin qoldig'i	985	1 107	1 795	12%
Berilgan kreditlar hajmi	2 380	2 700	4 080	13%
Kreditlar bo'yicha o'rtacha % stavkasi	17,3%	17,4%	18,0%	0,1 f.p.
Zahiralash darajasi, %	1,6%	1,6%	1,6%	-
Chakana kreditlarning ulushi,%	31,0%	31,5%	35,0%	0,5 f.p.
Portfeldagi 5 ta yirik kredit ulushi, %	11%	11%	10%	-

Bankning kredit liniyasini kengaytirish, shuningdek, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida 2022-2023-yillarda modulli kreditlashning 9 ta turi joriy etildi, bunda kreditlashning standart shartlari hamda filiallar tomonidan mijozlarning kredit buyurtmalarini tezkor ko'rib chiqish va tasdiqlash ko'zda tutilgan. Hisobot davrida berilgan modulli kreditlarning umumiy hajmi 114 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilda qisqa muddatli kreditlar berish hajmi jami 500 mlrd.so'mga, ularning kredit portfelinidagi ulushini 10 foizga, uzoq muddatli kreditlar berish hajmi 3 580 mlrd. so'mga yetkazilishi va ularning portfeldagi ulushini 90 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Kredit portfeli hajmini kengaytirishni iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridagi loyihalarini moliyalashtirish, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari hisobidan 112 mlrd.so'm loyihalarni moliyalashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 600 mlrd. so'm modulli kreditlar berish, shuningdek, chakana kredit mahsulotlari hajmini kengaytirish hisobiga ta'minlash rejalashtirilgan.

#### Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kredit portfelinin ko'rsatkichlari

Asosiy ko'rsatkichlar	01.01.2024 (kutil)	01.01.2025 (prognoz)	O'zg., (kutil.)%
	Tarkibi %.		



Xizmatlar	20%	21%	1 f.p.
Savdo va umumiy ovqatlanish	17%	16%	-1 f.p.
Sanoat	12%	13%	1 f.p.
Qishloq xo'jaligi	8%	7%	-1 f.p.
Qurilish	6%	5%	-1 f.p.
Transport va kommunikatsia	5%	3%	-2 f.p.
Boshqalar (jismoniy shaxslar, uy-joy kommunal xo'jaligi)	32%	35%	3 f.p.
<b>Jami portfel (brutto)</b>	<b>100%</b>	<b>100%</b>	

Joriy yilning 9 oyi davomida chakana va korporativ kredit mahsulotlari joriy etildi. Bozorning turli segmentlarini qamrab olishni kengaytirish maqsadida ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etmasdan barqaror daromad manbalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga kreditlar taqdim etish imkoniyati yaratildi.

Bankning chakana biznesni rivojlantirish dasturi doirasida 2024-yilda chakana mahsulot liniyasini kengaytirish, skoring modelini takomillashtirish va kreditlar sifatini oshirish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi. Shuningdek, 2024-yilda jismoniy shaxslar uchun mobil ilova va yuridik shaxslar uchun Internet-banking doirasida yangi onlayn kreditlarni ishga tushirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, kichik biznes subyektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarni kreditlash biznes jarayonlarini optimallashtirish, xususan, bank va Davlat soliq qo'mitasi, Kredit axboroti davlat reyestri, kredit byurosi o'rtasida elektron ma'lumotlar almashinuvi bo'yicha ishlar davom ettiriladi

2024-yilda eng yaxshi bank tajribasi va tamoyillari (pre, soft, hard, legal) asosida qarz oluvchilarga kreditdan keyingi xizmat ko'rsatish va kredit qarzdorliklarini yig'ish jarayonlarini tizimlashtirish va unifikatsiya qilishni nazarda tutuvchi Collection tizimini joriy etish davom ettiriladi.

#### Ta'minot turlari bo'yicha kredit portfelining tuzilishi

Asosiy ko'rsatkichlar	01.01.2024	01.01.2025	O'zg.,
	(kutil.)	(prognoz)	(kutil.)%
Ulush %.			
Sug'urta polislari	33%	33%	-
Tijorat ko'chmas mulki	32%	31%	-1 f.p.
Transport vositalari	15%	17%	2 f.p.
Uskuna	5%	4%	-1 f.p.
Uchinchi tomon kafolatlari	9%	8%	-1 f.p.
Turar-joy ko'chmas mulki	4%	6%	-2 f.p.
Depozitlar	0,6%	0,5%	-0,1 f.p.
Ta'minotning boshqa turlari	0,5%	0,5%	-
<b>Jami</b>	<b>100%</b>	<b>100%</b>	

